


TILLARANG NEMATODA – XAVFLI ZARARKUNANDA

*Malikov A.*

*Mamatqulov U.*

*Eshboyev Sh.*

*“Oybek” O’KCHM inspektorlari*



Tillarang kartoshka nematodasi (*Globodera rostochiensis*) – kartoshkaning hosiliga katta ziyon yetkazuvchi zararkunanda hisoblanadi. Bundan tashqari, pomidor, bulg‘or qalampiri va baqlajon kabi mahsulotlarni ham zararlashi mumkin. Ushbu kasallikni bunday nomlanishiga sabab urg‘ochisining rangi oltin rangidaligidadir.

Osiyo, Amerika, Afrika va Yevropaning bir kator davlatlarida, MDH davlatlaridan Armaniston, Belorussiya, Gruzuya, Qirg‘iziston, Tojikiston, Rossiya, Ukraina, Litva, Latviya, Estoniyada tarqalgan.

Kasallik asosan tuproq ostida, o‘simlik ildizlariga zarar yetkazadi. Uning lichinkalari tuproqda qolib, 10 yilgacha yashab ketish xususiyatini yo‘qotmaydi. Tillarang nematoda 1 yilda bir avlod beradi. Urg‘ochisi shar shaklida, kattaligi 0,13 – 1 mm gacha bo‘ladi.

Tillarang nematodaning erkagi va lichinkasi qurt ko‘rinishida bo‘lib, erkak

nematodaning uzunligi 1,2 mm gacha yetadi. Ularda soʻrgʻichlar yaxshi rivojlangan. Rivojlanishning ikkinchi bosqichiga yetgan lichinka uzunligi 0,5 mm boʻlib, u ham hujayra qobigʻini yora oladigan kuchli soʻruvchi stiletga ega boʻladi. Shuning hisobiga zararkunanda hujayraning tarkibi bilan oziqlanadi.

Zararlangan dalalarda kartoshka oʻsimligining oʻsishi susayadi, yaproqlari maydalashib, sargʻayib qoladi. Sargʻayish pastdan yuqoriga qarab boradi. Kartoshkaning mayda ildizlari tezda zararlanadi va ildiz quriydi, natijada oʻsimlik oziqlanishi qiyinlashadi.

Tillarang nematoda bilan zararlanish darajasi yuqori boʻlgan taqdirda, kartoshka yoki umuman hosil bermasdan nobud boʻladi yoki juda kam hosil beradi. Bunda yoʻqotish hajmi 30% dan 90% gacha yetishi mumkin.

Kasallik asosan tuproq va kartoshka mahsulotlari orqali tarqaladi. Kasallikni aniqlash maqsadida tuproqdan namuna olinadi. Bunda har 3 yilda 1 marotaba tekshirish oʻtkazish lozim. Agar tekshiruv uchun olingan tuproqda lichinkalar soni 1000 dan kam boʻlsa eng past zararlanish, 5000 tagacha boʻlsa oʻrtacha zararlanish, 5000 dan oshsa kuchli zararlanish darajasi hisoblanadi.

Kurash choralarida kasallik bilan kasallanmagan urugʻlik ekish, tuproqni yaxshi oʻgʻitlash, almashlab ekish yaxshi natija beradi. Zararlangan kartoshka ortilgan transportlarni 60 – 70 C° issiqlikdagi 2 – 4 % natriy gidoroksidi yoki 2 – 3% xlorli ohak aralashmasida yuvish, saqlash uchun olib qoʻyilgan kartoshkalarni 4 – 6% formalin suyuqligi bilan ishlash, zararlangan dalalarda hosil yigʻib terib olingandan soʻng nematitsidlar bilan ishlash tavsiya qilinadi.

Nematoda oʻchogʻining tarqalib ketishini oldini olish choralari mavjud boʻlib, eng oddiy usullardan biri – bitta maydonda mahsulotlarni almashlab ekishdir. Yaʼni kamida 5 yil davomida zararlangan maydonda kartoshka, pomidor, bulgʻor qalampiri va baqlajondan boshqa mahsulotlarni yetishtirish lozim.

Shuningdek, tuproqni nematodalardan tozalash uchun mutaxassislar zararlangan maydonga dukkakli yoki don mahsulotlari ekishni tavsiya qiladilar. Masalan, makkajoʻxori, lavlagi, piyoz, rediska, sholgʻom, xantal, shu bilan bir qatorda, karamning barcha turlarini ekish mumkin.